

1920-1930 YILLARDA SURXONDARYO HUDUDIDA XOTIN-QIZLARNING MADANIY SOHADA TUTGAN O'RNI VA FAOLIYATI

Tillayeva Shohsanam Odil qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi kafedrasida tarix fani o'qituvchisi.

Tel: +99893 039 00 39.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174678>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1920-1930 yillarda yurtimizdagi siyosiy vaziyat, „Hujum“ harakati, Surxondaryo hududida Xalq ta'limi sohasida xotin-qizlarning tutgan o'rni va ularga mo'ljallangan dastlabki maktablarning ochilishi va faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo okrugi „Sharq ayollari“, „Hujum“ harakati maorif maskanlari, Termiz, Amina Fayziyeva, Inobat Rustamova, Xadicha O'rmonova, okrug konferensiyalari, ayollar klublari.

РОЛЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В КУЛЬТУРНОЙ СФЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В 1920-1930-Е ГОДЫ.

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о политической ситуации в нашей стране в 1920-1930-е годы, движении «Атака», роли женщин в сфере народного образования в Сурхандарьинской области, а также открытии и функционировании первых школ для них.

Ключевые слова: Сурхандарьинский район, Женщины Востока, образовательные центры движения «Атака», Термез, Амина Файзиева, Инобат Рустамова, Хадича Ормонова, районные конференции, женские клубы.

THE ROLE AND ACTIVITIES OF WOMEN IN THE CULTURAL SPHERE IN THE SURKHANDARYA REGION IN 1920-1930

Abstract. This article provides detailed information about the political situation in our country in the 1920s and 1930s, the "Attack" movement, the role of women in the field of public education in the Surkhandarya region, and the opening and operation of the first schools for them.

Key words: Surkhondarya district, Women of the East, education centers of the "Attack" movement, Termiz, Amina Fayziyeva, Inobat Rustamova, Khadicha Ormonova, district conferences, women's clubs.

Mustaqillikni qo'lga kiritishimiz nafaqat erkinligimizni balki tariximizni ham qayta tiklash va uni borligicha o'rganish, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosimizni kelgusi

avlodlarimizga taqdim etish imkoniyatini yaratib berdi.

Insoniyat tarixining guvohlik berishicha, jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy jihatdan barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Tariximizni bilmasdan turib, o'tmish va bugunimizdan to'g'ri xulosa chiqarmasdan turib, kelajakka ishonch bilan dadil qadam qo'yolmaymiz. Bu esa o'z navbatida tarixchilarga juda katta mas'uliyatni yuklaydi. 1920-yillarda vohamizda ayollarning jamiyatdagi rolini qayta ko'rib chiqish, ularni ba'zi uy ishlaridan ozod qilish, ularga ta'lim olish va erkaklar bilan teng asosda ishlash imkoniyatini berishga qaratilgan siyosat amalga oshirildi.

Chunki „Sharq ayollar“ mamlakatda ayollarning teng huquqqa ega bo'lmagan toifasi deb hisoblangan. 1920-yillarning o'rtalaridan boshlab „Sharq ayollarini ozod qilish“ harakati uchun „Hujum“ degan maxsus nom paydo bo'ldi. Ayollarga bolalarni parvarish qilish va sog'lom turmush asoslarini o'rgatuvchi, shuningdek huquqiy masalalar, ayollar va bolalar tibbiy maslahatlar beradigan maxsus ayollar bo'limlari ham tashkil etilgandi.

Bundan tashqari O'zbekistonda xotin-qizlar klublarini tashkil qilishga keng e'tibor berildi. Birinchi xotin-qizlar klubi 1924-yilda Toshkentning eski shahrida ochildi. Dastlab bu klubga 250 ta mahalliy xotin-qizlar jalb qilindi. Ana shunday klublardan biri Surxondaryo hududidagi Sherobod tumanida 1925-yil 22-avgustda ochildi. Bu klubda 1926-yil boshlarida bolalar va o'zbek ayollarining savodini chiqarish bo'yicha maslahat shubasi tashkil etildi. Ularda bolalarni qanday tarbiyalash, xotin-qizlar gigiyenasi to'g'risida, siyosiy, madaniy-tarbiyaviy va tibbiy maslahatlar berib borildi.

Xotin-qizlar orasida targ'ibot va tashviqot ishlarini asosan rusiy zabon ayollar olib borardi. Bu bilan ular mahalliy xotin-qizlar orasida yevropacha kiyinishni, yevropacha yurish-turushni va muomilani jonli ravishda namoyish qilishar va shu yo'l bilan ular yangicha madaniyatni yoyishga harakat qilardilar. 1926-yilning sentabr oyida O'rta Osiyo partiya komitetlarining xotin-qizlar bo'limlari xodimlari ishtirokida kengash o'tkazildi va u yerda xotin-qizlar orasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va uni majburiy ravishda o'tkazishga harakat qilindi. Bu harakat esa o'z navbatida „Hujum“ nomini oldi. Bu harakatni o'tkazish uchun 1926-yil dekabrda O'rta Osiyo respublikalari va xususan, O'zbekistonda maxsus kompaniyalar ish boshladi. [1, 38-c] Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishning eng muhim masalalaridan biri bu paranjiga qarshi kurash edi. 1927-yil 8-mart kuni O'zbekistonda bo'lgan yuzlab mitinglarda qatnashgan minglab xotin-qizlar o'z paranjilarini tashlashdi. Lekin bunda o'sha davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, milliy-ma'naviy dunyoqarashlar hisobga olinmagan bo'lsa ham dastlab katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Surxondaryo viloyatida 1928-yilda 11 ta klub faoliyat ko'rsatib, shundan 3 tasi ayollar

klublari edi. Bu klublarda aholi o'rtasida madaniy-ijtimoiy, musiqaviy, sanitariyaga oid tadbirlar o'tkazilgan.

Bundan tashqari ayollarni madaniy sohaga jalb qilish, ularni madaniy saviyasini oshirishga oid harakatlar ham olib borildi. Dastlab mahalliy xotin-qizlarni maorif maskanlariga jalb qilish oson bo'lmaydi. Mavjud maktab va hunar-texnika o'quv yurtlarida mahalliy millatlarning qizlari jami o'quvchilarning 7-8 % ini tashkil qilardi. Qizlarni maktabga tortishda shoshma-shosharlik, urf-odatlar va an'analarni hisobga olmaslik bir qator murakkabliklar tug'dirdi. Xotin-qizlardan o'qituvchi pedagoglar bo'lishi kerak edi.

Xotin-qizlar maktablari 1923-1924 o'quv yilida 30 ta, undagi o'quvchilar soni 1344 bo'lgan bo'lsa, 1924-1925 o'quv yilida 34 ta, ulardagi o'quvchilar soni 2158 nafar, 1925-1926 o'quv yilida esa 96 ta, ulardagi o'quvchilar soni 9454 nafar qizlar o'qidi. 1925-1926 o'quv yilidan boshlab, o'g'il bolalar maktabi qoshida qizlar uchun maxsus sinflar ochila boshladi. Bu sinflarda 4563 kishi o'qidi. Shu bilan birga, xotin-qizlar maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash ham kuchaytirildi. 1925-1926 o'quv yilida mahalliy aholi xotin-qizlaridan 128 kishi, keyingi o'quv yilida esa 291 kishi o'qituvchi bo'lib yetishdi. [2, 1-7-v]

1925-yil 21-noyabrda Termiz xalq ta'limi bo'limi shaharda mahalliy millat xotin-qizlariga mo'ljallangan birinchi maktabni ochish haqida qaror qabul qiladi. 1926-1927-yil o'quv yilida O'zbekiston SSRda 101 ta xotin-qizlar maktabi mavjud bo'lsa, Surxondaryo okrugida shu o'quv yilida 5 ta xotin-qizlar maktabi ish boshladi. Bu maktablarda faoliyat yuritgan, vohada yetishib chiqqan dastlabki xotin-qiz o'qituvchilardan Amina Fayziyeva, Inobat Rustamova, Xadicha O'rmonova va boshqalarning nomlarini keltirib o'tish mumkin.

Termiz shahrining 1927-yil 30-iyuldan boshlab Surxondaryo okrugining markaziga, 1929-yildan viloyatga bo'ysunuvchi shaharga aylantirilishi natijasida okrug miqyosida amalga oshirilayotgan madaniy-ma'rifiy quruluşlarga, avvalo Termizda poydevor qo'yila boshlandi.

1927-yilda Termiz shahrida o'qituvchilarning shahar, 1928-yilda okrug konferensiyalari bo'lib o'tdi. Unda okrugdagi barcha maktablardan 78 ta o'qituvchi ishtirok etdi. Konferensiya qarorlarida xalq maorifini kengaytirish yuzasidan amaliy tadbirlar qabul qilindi. Ishchi-dehqon va qizil armiya deputatlari Surxondaryo okrug i Sovetlarining II (1927) va III (1928) syezdlarida okrug aholisining aksariyati o'qishga tortilmay qolayotganligi qayd etildi. Shu davrda okrugda maktab yoshidagi bolalarning 9,8 foizi, o'quvchi-qizlarning esa 1,3 foizi maktabga jalb qilingan edi, xolos.

Ma'lumki 20-yillarning boshlarida sovet maktablari bilan birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan taminlab beriladigan vaqf maktablari va madrasalar ham faoliyat yuritib turgan. 1925-1926-o'quv yilida 97 ta vaqf maktablari, 1600 dan ortiq eski maktablar bo'lib,

ulardan 250 tasi yashirin holda ish olib borgan. [3, 576-b] Yangi sovet maktablari muallimlarga muhtoj bo'lsada, eski maktablar va jadid usulidagi maktablar muallimlardan foydalanmadi, aksincha ularga „Dushman” sifatida qaradi. Natijada, ular sovet ma'murlari tomonidan asta-sekin berkitildi. 1924-yilda vohamizda 205 ta eski maktablar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1927-1928 o'quv yiliga kelib esa, bu maktablar soni 17 taga tushib qoldi. Ularda jami 136 kishi bo'lib, shundan 121 nafarini o'g'il bolalar, 15 nafarini qiz bolalar tashkil etardi.

Asta-sekinlik bilan bo'lsada maktablarda o'quvchi qizlar soni orta boshladi. 1927-1928 o'quv yilida umumiy ta'lim maktablarida qizlarning salmog'i: shaharlarda 21,1% i (28500 o'quvchi qiz) va qishloqlarda 9,6 % (6235 o'quvchi qiz) bo'lgan bo'lsa, 1938-1939 o'quv yiliga kelib shaharlarda 40,7 % (337174 o'quvchi qiz) bo'ldi. [4, 13-b]

Biroq, xotin –qizlarni o'qishga tortish ishlari hali ham oqsamoqda edi. Ayniqsa, qishloqlardagi xotin-qizlar maktablarga juda kam tortilgan edi. Faqatgina Termiz rayonida 1929-yilda birinchi bosqich maktablardagi 781 nafar o'quvchidan 205 nafari qizlar bo'lsa, 1932 yilga kelib 3252 nafar o'qituvchidan 1420 nafarini qizlar tashkil etdi. [5, 70-b] Uch yilda 26,2 % dan 40% gacha qizlar maktabga tortilgan bo'sada, ular asosan, Termiz shahrida yashovchi qizlarning maktabga jalb etilishi tufayli ko'paygan. Qishloqlardagi xotin-qizlar, ayniqsa o'zbek va boshqa mahalliy millat xotin-qizlari umumiy-majburiy boshlang'ich ta'lim maktablariga juda kam jalb qilindi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 1920-1930 yillar davomida O'zbekistonda, xususan Surxondaryo hududida madaniy hayot og'ir bir sharoitda, mafkuraviy qoliplar asosida rivojlandi. Biroq shunga qaramasdan madaniyat maydonida bir qator faol shaxslar, shular qatorida xotin qizlar ham faoliyat ko'rsatdi va bir qator yutuqlarga erishdi. Biroq bu yutuqlar o'zbek xalqi tomonidan ulkan yo'qotishlar va kuchli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar evaziga qo'lga kiritildi. Xususan, ayollarimizning faolligi faqat yopinqich ichida o'tayotgan umrga nisbatan emasdi. Buning o'ziga xos sababi ayollarmiz tabiatida adolatsizlikka qarshi kurash tuyg'usining mavjudligida edi.

REFERENCES

1. Aminova R. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. Т., 1975, 38 с
2. O'zRXTVArxivi, 172-fond, 1-ro'yhat, 30-yig'ma jild, 1-7-varaqlar
3. O'zbekiston SSR tarixi. 1 tomlik. O'zFA nashriyoti. T., 1958, 576 bet.
4. Qoraxonov M. Sovet O'zbekistoni madaniyati. T., „O'zdavnashr” 1957, 13-bet
5. Surxondaryo part.arxivi, 7-fond, 1-ro'yxat, 126-yig'ma jild, 70-varaq